



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Zaripova Muslina

**Qashqadaryo viloyati PYaMO'MM  
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lif kafedrasini o'qituvchisi**

## **ZAMONAVIY O'QITUVCHINING DARS JARAYOIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy o'qituvchining dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishi haqida fikrlar berilgan. Shu bilan birga o'qitish jarayonini samarali va natijali bo'ishini ta'minlashga yo'naltirilgan interfaol uslublar haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** Pedagogik faoliyat, dars, bilim, zamonaviy uslublar, interfaol metodlar, pedagogik texnologiya, innovatsiya.

**Annotation.** In this article, in the course of the lesson of the modern listener: pedagogical innovation. Thoughts are given about the technology. At the same time, information about interactive methods aimed at ensuring the effective and efficient teaching process is presented.

**Keywords.** Pedagogical activity, lesson, knowledge, modern methods, interactive methods, technology.

Pedagogik faoliyatni ilmiy tashkil etish uchun har bir o'qituvchi, eng avvalo, o'z fani bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarini didaktik va zamonaviy talablar asosida tashkil etishi lozim. U, buning uchun har bir darsga qo'yiladigan rivojlantiruvchi maqsadning didaktik tamoyillariga amal qilishi kerak. Ya'ni, u o'quvchilar xotirasi, tafakkuriga joylashadigan bilimning nisbatini, o'quvchilarning ijro va ijodiy faoliyatlari xajmini hamda bilimlarining tayyor holda yoki qidirib o'zlashtirishini aniqlashi kerak.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lif jarayonini har tomonlama mukammal loyihalashtirish, aniq maqsadlar qo'yish va ularga kafolatlangan holda erishish, rejalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi uzviy bog'langan komponentlar yig'indisi deb



hisoblandi. Ushbu qoidadan kelib chiqqan holda har bir o'qitiladigan mavzuga keng qamrovli loyiha ishlab chiqish bilan bir qatorda, o'quv-metodik majmua tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Majmuaning tarkibiga loyihaga qo'shimcha mavzuga daxldor bo'lgan barcha axborotlar, tarqatma materiallar, ma'lumotnomalar, manbalar, ulardan foydalanish metodikasi kiritildi. Pedagogik texnologiya deganda, texnologik (ishlab chiqarishdagi) yondashuvlarga aynan o'xshash bo'lgan ta'limda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatlangan (yakuniy natijani olish) ta'lim jarayoni tushuniladi. Bunday ta'lim jarayoni texnologiyalashtirilgan deyiladi.

Texnologiyalashtirilgan ta'lim jarayoni o'qituvchi shaxsiga bog'liq bo'lмаган faqat o'quvchining shaxsi, ehtiyojlari, talablari va xislatlariga asoslangan ta'lim jarayonidir. O'quvchi ta'lim jarayoni markazida turadi. Bunda darsni kim olib borayapti (tajribali o'qituvchimi yoki yosh o'qituvchimi) qat'iy nazar ko'zlangan yakuniy natija (maqsadga ko'ra) ga erishish kafolatlanishi lozim.

Ta'limda o'qituvchi faqat ijrochi vazifasini bajaradi. Pedagogik texnologiya pedagogik (ijtimoiy) va texnologik (ishlab chiqarishdagi, muhandislik) yondashuvlar integratsiyasidir. Pedagogik texnologiyaga turli ta'riflar mavjud. YuNESKO ta'rifi: Pedagogik texnologiya – ta'lim berish va o'zlashtirish usullarini yaratish, qo'llash, ularni yagona tizimga keltirish yo'li bilan inson salohiyati va texnik vositalarining barcha imkoniyatlaridan muvofiq foydalanib, bilimlar o'zlashtirishining eng maqbul jarayonidir<sup>1</sup>.

Bugungi kunda o'qitish jarayonini samarali va natijali bo'lishini ta'minlashga yo'naltirilgan interfaol uslublarning va o'qitish texnologiyalarining barchasi mamlakatimizning barcha umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-xunar hamda oliy ta'lim muassasalari, o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlari va fakulitetlarda keng miqyosda qo'llanilib kelinmoqda xamda ijobiy natijalar bermoqda. Bugungi kunda respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda. Interfaol metodlar: «Keysstadi» (yoki «O'quv keyslari»), «Blits-so'rov», «Modellashtirish», «Ijodiy ish», «Munosabat», «Reja», «Suhbat» va b. Strategiyalar: «Aqliy hujum», «Bumerang», «Galereya», «Zig-zag», «Zinama-zina», «Muzyorar», «Rotatsiya», «T-jadval», «Yumaloqlangan qor» va h.k. Grafik organayzerlar: «Baliq skeleti», «BBB», «Kontseptual jadval», «Venn diagrammasi», «Insert», «Klaster», «Nima uchun?», «Qanday?» va b<sup>2</sup>. Interfaol ta'lim bevosita interfaol metodlari yordamida tashkil etiladi. Modulli-kredit tizimi zamonaviy ta'limning eng takomillashgan shakli sanaladi. Bugungi kunda taraqqiyat parvar insoniyat davlatlar o'tasida ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy sohalarda o'zaro kelishuvga erishish, hamkorlikni yo'lga qo'yishning yangidan yangi yo'llarini izlashda davom etmoqda.

Bugungi kunda ta'lim tizimida bilimlarni egallashning yangi konseptsiyasi — zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalarning turli xil ko'rinishlarini qo'llash juda yaxshi samara bermoqda. Bunda ta'limning yangi metodlardan foydalanishda tahsil oluvchilarning intellektual, erkin fiklashni rivojlantirish, o'z fikrini asoslab berishga intilishi, o'zgalar fikrini tinglay olishi, muammolar yechimini topishga harakat qilishi, ijodiy va axloqiy taraqqiyoti jarayonlariga samarali ta'sir etadi. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim metodlaridan foydalanganda, avvalo, bu metoddan foydalanishning o'rni, uning samaradorligini bilishi muhimdir.

<sup>1</sup> G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar. Qarshi, "Nasaf" nashriyoti. 2009 y.

<sup>2</sup> Azizzxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, TDPU, 2003.



Buning uchun har bir pedagog hayotiy tajribaga ega bo'lgan, yetarli bilimlar bilan qurollangan, ta'lif oluvchilarga nisbatan muammolarning yechimini oldindan hal eta oladigan va ularni ta'lif oluvchilarga yetkazish malakasiga ega bo'lishi lozim.

Innovatsiya (inglizcha «innova»-yangilik kiritish, yangiliklar) tushunchasi bugungi kunda keng qo'llanilayotgan iboralarlan biri. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish va uni amalga oshirishda interaktiv metodlardan foydalanishdir. Pedagogik xamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga kuyidagilar kiradi:

- o'quvchini dars davomida befark bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga undash;
- o'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qizikishlari doimiy ravishda har masalaga ijobiy yondashgan holda kuchaytirish;
- pedagog va o'quvchining xamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar «Ta'lif to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» asosida olib borilayotgan tub islohotlarni harakatlantiruvchi kuchlardan biridir. Ijtimoiy taraqqiyot ta'lif-tarbiya tizimida fan-texnika yangiliklarini mukammal egallagan mutaxassislarini talab qilganidek, ta'lif va tarbiya jarayonining takomillashib borayotganligi ham pedagogik texnologiyani hayotga kengrok joriy etishni taqozo etmokda. Hozirda ta'lif metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'naliishlaridan biri interfaol ta'lif va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat.

Bugungi kunda olimlarimiz va ilg'or pedagog-o'qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni hayotga joriy etishga astoydil kirishganlar. Bu borada ularning pedagogik faoliyatlarida shakllangan pedagogik mahoratlari qo'l kelishi tabiiyidir. O'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi lozim.

O'qituvchi qancha yuqori pedagogik mahoratga ega bo'lsa, uning jamoadagi obro'-e'tibori ham oshadi, o'quvchilarda unga nisbatan hurmat yuzaga keladi. O'qituvchilarda kasbiy mahorat, ijodkorlik ko'nikmalarini hosil qilish, muomala va nutq madaniyatini shakllantirish, o'z sohasi bo'yicha tinimsiz ishslash, pedagogika sohasidagi yangiliklar bilan muntazam tanishib borish va ularni hayotga tadbiq etish orqali pedagogik mahorat ham oshib boradi. Mashg'ulotlarda qo'llanilayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, noan'anaviy usullar samaradorligiga erishishda pedagogik mahorat talab etiladi. «Pedagogik mahorat» - ta'lif-tarbiya jarayonini doimo rivojlantirib, yuksak darajaga olib chiqish san'atidir.

Hayotda hamma ham mohir pedagog-tarbiyachi bo'lib tug'ilmaydi, pedagogik mahoratga o'quv tarbiya jarayonida o'rghanish, bilish, ko'nikma va malaka orqali erishiladi. A.Makarenko: «...biz faqatgina pedagogik mahoratga tayana olamiz, demak, o'qituvchi tarbiya jarayonini to'liq, aniq bilishi shart» deb beziz aytмаган. Pedagogik mahoratga ega o'qituvchilar har qanday vaziyatdan chiqa oladilar, o'quvchilarning tarbiyalanganlik va bilimdonlik darajasi samaradorligiga erisha oladilar. O'qituvchi o'z kasbiy mahoratini oshirib borishlari uchun quyidagilarga e'tibor berishlari lozim:

- o'quvchilarlar faoliyatini butun mashg'ulot jarayonida boshqara olish, ya'ni rejissyorlik mahoratiga ega bo'lish;
- o'quvchilar faolligini oshira olish, qobiliyatini rivojlantirish, ularni erkin fikrlashga, ijodkorlikka unday olish;
- ta'lif jarayonida o'quvchilarning axloqiy sifatlarini, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, milliy iftixor, ma'naviy hislatlarni tarbiyalay olish;



- faollik, qiziqarli misollar bilan o'quvchilarda shu fanga nisbatan qiziqishlarini uyg'ota olish;
- nutqiy madaniyatga ega bo'lismi, dunyoqarashning kengligi;
- muloqot psixologiyasini bilish, o'quvchilar diqqatini jalg qilish, hissiyotni boshqara olish;
- intonatsiya, mimika, pantomimika, harakat, tovush ohangiga e'tibor berish. Yuqori darajadagi umumiy kasbiy madaniyatga, mustaqil fikrlashga ega, turli yechimlarni mustaqil hal qiladigan barkamol avlodni shakllantirishda pedagogik mahoratga ega o'qituvchilarning mashg'ulotlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, noan'anaviy usullarni kengroq qo'llay olishi ta'lim-tarbiya tizimida katta ahamiyat kasb etishi amalda o'z isbotini topmoqda.

Interfaol usullarni o'quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi – dars qaysi shaklda bo'lmasin, qaerda o'tkazilmasin darsda o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlikda ishlashini tashkil etishdir. Bunda o'qituvchi ko'rsatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi vazifasini bajaradi. Kuzatishlardan ma'lumki, interfaol usullarni qo'llashda quyidagi holatlar yaqqol ko'rindi:

- ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning ilg'or pedagogik texnologiyalardan xabardor emasligi;
- o'quvchilarning o'qituvchilarda an'anaviy ta'lim va interfaol o'qitishdagi afzalliliklar va kamchiliklarni ko'ra olmaslik;
- his qilmasdan amalda qo'llayverish;
- o'qitish jarayonida axborot texnika vositalaridan foydalanishga sezilarli darajada e'tibor qaratilmaganligi;
- o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishi va faollik ko'rsatishlariga yetarlicha imkoniyat berilmasligi;
- darslar an'anaviy ta'lim yo'naliishida olib borilayotganligi;
- darsning asosiy boshqaruvchisi o'qituvchi ekanligi;
- interfaol darslarni yengil, o'yinlardan tashkil topgan deb qarashning mavjudligi;
- auditoriyada o'quvchilar bilan do'stona munosabatlarning mavjud emasligi.

Bunday holatlarga barham berishda eng maqbul yo'l darslarni interfaol usullar asosida tashkil etishdir. Mazkur jarayon mohiyatini metodik jihatdan asoslash maqsadida o'qituvchilar uchun quyidagi talablarni tavsiya qilish mumkin:

- ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarning maqsadi, mohiyati, taraqqiyot bosqichlarini bilish;
- ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'quv fani maqsadiga muvofiq tanlay olish va amaliyotga tadbiq etish;
- pedagogik tamoyillarga to'laqonli amal qilish barobarida o'z ustida tinmay izlanishlar olib borish;
- interfaol dars shaklining an'anaviy darsdan ustunligini anglash va har ikkala dars shakllaridan o'rinci foydalanish malakasiga ega bo'lismi;
- shaxs tarbiyasida o'qituvchi mas'ulligini to'laqonli his etish;
- o'quvchi shaxsiy sifatlaridagi o'ziga xoslik munosabatlarini yakdil anglay olish va individual mahorat orqali yondashish malakasiga ega bo'lismi;
- dars maqsadiga erishish yo'llarini bilish, dars bosqichlari tarkibiy tuzilishiga to'liq tayanish;
- o'quvchilar ijodkorligi, dunyoviy fikrlashi, jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun darsda shart-sharoit yaratish, fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida ularni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslubiyotlarini izlash va amalda qo'llash.



Noan'anaviy mashg'ulotlarda kichik guruhlarni tashkil etish muhimhisoblanadi, shuning uchun tajribadan kelib chiqqan holda kichik guruhlarni tashkil etishda quyidagilarga e'tibor berishni tavsiya etamiz:

1. Guruhlarga aniq yo'l-yo'riqlar ko'rsatish;
2. Kichik guruhlar uchun berilgan vazifaning bajarilishiga yetarlicha vaqt ajratish. Boshka guruhlarga nisbatan vazifasini erta bajargan guruhni band qilishni o'yash;
3. Baholash va mukofotlash tizimi kichik guruhlardagi ishlarga qanday ta'sir etishini o'ylab ko'rish;
4. Muvaffaqiyatli guruhiy ish uchun mukofot tayyorlash;
5. Jamoa bo'lib o'rganish vaqtidagi shovqinga ko'nikish uchun hozirlik ko'rish;
6. O'quvchilarga mutlaqo tayziq o'tkazmaslik;
7. Barcha o'quvchilarning darsga faol qatnashishlarini ta'minlash;
8. O'quvchilarning hamkorlikda ishlashi va buning qanday natijaga ega bo'lishlarini ularning o'zlariga tushuntirish;
9. O'quvchilarning mustaqil ishlashlari va fikrlashlariga imkoniyat yaratish. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagog ta'lim tarbiya jarayoniga qadam qo'yari ekan, mutaxassisligi bo'yicha o'zlashtirgan bilimidan qat'iy nazar, pedagogik-psixologik bilimlar, pedagogik texnologiyalar va o'qitish-o'rgatish uslublari yig'indisi bo'lган ana shunday zarur pedagogik ko'nikmalarni egallashi hukumatimiz tomonidan qo'yilayotgan shu kungi dolzarb vazifalardandir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizzxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, TDPU, 2003.
2. Ishmuhammmedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: TDPU, 2005.
3. Ishmuhammmedov R. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. - T., 2010.
4. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar. Qarshi, "Nasaf" nashriyoti. 2009 y.
5. F.M.Zakirova, D.U.Qarshieva, Quest for Pedagogical Technology and Its Use in Education Systems // [International Journal on Integrated Education](#), 2020 // DOI: [10.31149/ijie.v3i5.369](https://doi.org/10.31149/ijie.v3i5.369).
6. D.O'.Karshieva, IMPROVING LESSON DESIGN COMPETENCY OF SCHOOL TEACHERS BASED ON "WEB-QUEST" TECHNOLOGY // Journal of Hunan University (Natural Sciences, Vol. 49. No. 12 December 2022.